

## BOBUR HAYOTI VA FAOLIYATI ADABIYOTSHUNOS VA TARIXCHILAR NIGOHIDA

**Xabibullayeva Aziza**  
Qo‘qon universiteti talabasi

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada shoh va shoir, o‘lmas so‘z ustalaridan biri, temuriylar sulolasining yirik namoyondasi, Turkiston va Hindiston farzandi Zahiriddin Muhammad Boburning faoliyati va hayot sahifalarini adabiyotshunoslar, olimlar, tarixchilar nigohida qanday o‘rganilganiga urg‘u berildi. Bobur ajoyib shaxsiyat egasi, yuksak salohiyat sohibi, zabardast sarkarda ekanligi yana bir bor isbotlandi. Jahon tamaddunida Bobur ham alohida o‘ringa ega ekani ko‘rsatildi. Boburshunoslikdagi amaliy ishlar natijalari, izlanishlar samarasi o‘laroq Bobur siymosi qaytadan kashf qilindi.

**Kalit so‘zlar:** Zahiriddin Muhammad Bobur, shoh, shoir, sulola asoschisi, voris, mahorat, salohiyat, boburshunoslik, anjuman, she‘riy meros

### АННОТАЦИЯ

В данной статье подчеркнута, как изучались деятельность и страницы жизни царя и поэта, одного из мастеров бессмертного слова, великого представителя династии Тимуридов, сына Туркестана и Индии Захириддина Мухаммада Бабура. глазами литературоведов, ученых и историков. Еще раз доказано, что Бабур – обладатель прекрасной личности, обладатель высокого потенциала и великий полководец. Было показано, что Бабур также занимает особое место в мировой цивилизации. Характер Бабура был заново открыт в результате практической работы по бабуроведению, в результате исследований.

**Ключевые слова:** Захириддин Мухаммад Бабур, король, поэт, основатель династии, преемник, мастерство, потенциал, бабуроведение, конференция, поэтическое наследие

### ABSTRACT

In this article, it was emphasized how the activity and life pages of the king and poet, one of the masters of immortal words, the great representative of the Timurid dynasty, the child of Turkestan and India, Zahiriddin Muhammad Babur, were studied in the eyes of literary scholars, scientists, and historians. It has been proved once again that Babur is the owner of a wonderful personality, the owner of high potential, and a great general. It was shown that Babur also has a special place in world civilization. Babur's character was rediscovered as a result of practical work in Babur studies, as a result of research.

**Keywords:** Zahiriddin Muhammad Babur, king, poet, founder of the dynasty, successor, skill, potential, Babur studies, conference, poetic heritage.

Turk adabiyotining eng mashhur vakillaridan biri o'zining ijodiy faoliyati va kuchli siyosati bilan dunyo tarixida o'chmas nom qoldirgan buyuk shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur Amir Temurning munosib vorislaridan bo'ldi. Uning avlodlari esa ko'p yillar davomida dunyo siyosatiga katta ta'sir ko'rsata oldilar. Shu tariqa Bobur ulkan sulola asoschisi sifatida tarixda qoldi. Boburning nozik ta'bi, musiqaga bo'lgan qiziqishini barcha juda yaxshi bilardi. U farzandlarini ham ilm olishga undan ular uchun eng yaxshi ustozlardan homiylik qilishni so'rardi. Shu tariqa Boburning o'rtancha o'g'li Kamronda ham shoirlik qobiliyati paydo bo'ldi. U "Komron" taxallusi bilan ruboiy va g'azallar bitishni boshladi. Boburning sevimli qizi Gulbadanbegim esa nasr yo'nalishidan bordi. Uning katta akasi Humoyunga bag'ishlab yozgan "Humoyunnoma" asari muhim tarixiy hujjatardan biri bo'lib qoldi.

Pirimqul Qodirov: "Bobur mirzo so'z bilan jonli tasvir yaratish mahoratini mukammal egallagan adib edi. Buni o'zi ham sezardi. Shuning uchun umrining oxirida o'g'li Humoyunga "Boburnoma"ni tugallab taqdim etganida unga bir ruboiy ilova qiladi:

Bu olam aro ajab alamlar ko'rdum,  
Olam eliding turfa sitamlar ko'rdum,  
Har kim bu "Vaqoyi" ni o'qir, bilgakim,  
Ne ranj-u ne mashaqqat-u ne g'amlar ko'rdum.

Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti, faoliyati va merosini o'rganish XVI asarning avvalidan boshlangan edi. Boshqacha qilib aytganda bu qutlug'ishni Boburning o'zi "Boburnoma" asarida boshlab bergan. Shundan so'ng Movarounnahr, Afg'oniston va Hindistonda yozilgan tazkira va tarixiy asarlarda Bobur haqida ma'lumot berish kuzatiladi. Bu jihatdan Boburning qizi Gulbadanbegimning "Humoyunnoma", Muhammad Haydarning "Tarixi Rasidiy" kabi asarlari, ayniqsa diqqatga sazovor. Chunki bu mualliflar Bobur bilan bevosita muloqotda bo'lib, uning faoliyati, shaxsiyati, va fazilatlarini to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni keltirganlar.

Keyinchalik, xususan, XVIII asrdan boshlab Bobur hayoti, faoliyati va merosi bilan qiziqish Yevropada ham jonlanib ketdi. Uning "Boburnoma"sig bo'lgan ehtirom tufayli XIX asrda u ingliz (Elfinston, Erskin, Beverid), fransuz (Pave de Kurtayl) tillariga tarjima qilinib bosildi. Rus olimi N.Ilmiskiy esa "Boburnoma" ning asl nusxasini nashr ettirdi. Bu hol XX asrda ham davom etdi. Jumladan, fransuz adibi Fernand Grenard "Bobur", Amerikalik yozuvchi Harold Iamb "Bobur sher" asarlarini yaratdilar. Fernand Grenardning asari keyinchalik nemis (1931-yil) va turk tillariga (1970-yil) tarjima qilinib, nashr ettirildi. Afg'onistonlik olim Shafiqa Yorqin Bobur she'riy merosining nisbatan to'liq nusxasini tuzib, katta tadqiqot bilan birga 1983-yilda "Devoni Zahiriddin Bobur" nomi bilan Kobulda nashr ettirdi. Rus olimasi I.V.Stebleva

Bobur she'riyati ( g'azallari) ga oid risolasini yaratdi. Shu tariqa boburshunoslik alohida soha sifatida shakllanib bordi. Keyinchalik, Amerika, Yevropa, Osiyoning ko'plab mamlakatlarida yildan yilga rivojlanib bormoqda, tadqiqotchilar safi kengaymoqda. Aynan, shu hodisalarning o'zi Boburning, faqat turk adabiyoti shinavandalarini emas, balki jahon adabiyoti olim va olimalarini qiziqtirganini ko'rish mumkin. Buning asosiy sababi Bobur asarlarining ruhi va uslubidir.

Bobur Xalqaro jamoat fondining "Bobur izidan" ilmiy-amaliy ekspeditsiyasi o'zining o'n ikki safarida jahonning o'ttizdan ortiq mamlakatlarida bo'lib, "Bobur va jahon madaniyati" muzeyiga uch yuzdan ortiq Bobur va boburiylarga oid noyob kitoblar, qo'lyozmalar, rasm va boshqa madaniy ashyolar keltirdilar.

Ekspeditsiya safarlari yigirma ikkita video va badiiy filmda, Xayriddin Sultonning "Boburiynoma", Qamchibek Kenjashning "Hind sorig'a", "Buyuklar izidan", "Boburiylardan biri", "Andijondan Dakkagacha", "Andijondan Bag'dodgacha" safarnoma romanlarida aks etdi.

2015-yilning 15-16-avgust kunlari Andijonda, Bobur nomidagi milliy bog'da bo'lib o'tgan "Bobur ba boburiylarning jahon madaniyati tarixida tutgan o'rni" mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman Bobur fondining navbatdagi ezgu ishlaridan biri bo'ldi. Ushbu nufuzli konfrensiyaga jahonning o'ndan ortiq mamlakatlaridan boburshunos olimlar tashrif buyurdilar. Jumladan, professorlar – Eyji Mano (Yaponiya), Sirtautas Ilza (AQSH), Xurmarjon Fikrat (Xitoy), Magda Salah Maxluf (Misr), Tanju Seyhan, Gulshen Seyhan, Alishik (Turkiya), Abdulboriy Rashid, Shafiqa Yorqin, Halim Yorqin (Afg'oniston), Hasab Beg, Irshod Usmoniy (Buyuk Britaniya), Jumamurod Gurbangeldiyev, K. Bayramov (Turkmaniston), Islom Jemeney (Qozog'iston) va shu kabilalar.

Anjumanda o'qilgan ma'ruzalar Boburning hayoti va ijodi hamda boburiylar faoliyati haqida yangi-yangi ohorli tadqiqotlar sifatida tinglovchilarni mamnun etdi.

Xalqaro Bobur fondi an'anasiga ko'ra har 5 yilda bir marotaba, ilm-fan, san'at va adabiyotda boburshunoslikka hissa qo'shgan olim va san'atkorlar "Xalqaro Bobur mukofoti laureati" unvoniga sazovor bo'ladilar. Bu anjumanda Misr Arab Resoublikasidan kelgan olim Magda Salah Maxluf "Boburnoma"ni arab tiliga tarjima qilgani uchun, o'zbekistonlik haykaltarosh Rashid Sulaymonov Bobur timsolini bronzada yaratgani uchun, adabiyotshunos Hasan Qudratullayev "Bobur armoni" nomli ilmiy tadqiqoti va boshqa asarlari uchun, boburshunos Vahob Rahmonov Bobur asarlarini nashrga tayyorlagani va Zokirjon Mashrabov Bobur merosini o'rganish yo'lidagi xizmatlari uchun taqdirlandilar.

Bejizga "Boburnoma" haqida: "Uning uslubi oddiy va mardona, jonli va obrazli. U o'z zamondoshlarining qiyofalari, urf-odatlari va intilishlarini, qiliqlarini oynadek

ravshan tasvirlaydi. Shu jihatdan asar Osiyoda yagona, chinakam tarixiy tasvir namunasidir”, deydi Monstyuart Elfinston.

Boburshunoslikda yaponiyalik professor Eyji Manoning hissasi, auniqsa, salmoqlidir. Bu zahmatkash olim 40 yildan beri Bobur asarlarini astoydil tadqiq etib kelmoqda. U birinchi bo‘lib, “Boburnoma” ning ilmiy-tanqidiy matnini yaratdi, asarni yqpon tiliga tarjima qildi. “Bobur va uning davri” nomli yirik asar yozdi – jami to‘rt kitobdan iborat ilmiy-tadqiqotlar majmuyini yaratdi. Uning “Boburnoma”ga tuzgan konkordansi (asardagi jami so‘zlarning necha marta uchrashini alifbo tartibida va aniq o‘rnini ko‘rsatgan holdagi mukammal ro‘yxati boburshunoslikdagi eng jiddiy ilmiy yutuqlardan biridir. Bobur asarlariga konkordans tuzish Bobur leksikasini tuzish, o‘rganish, uning qalamiga mansub asarlar tilining mukammal izohli lug‘atini yaratishda juda muhim ahamiyatga ega. Olimning to‘rt kitobidan dastlabki uchtasi “Boburnoma”ga bag‘ishlangan sof filologik, matnshunoslik sohalariga oid izlanishlar bo‘lsa, “Bobur va uning davri” deb nomlangan to‘rtinchi jildi to‘rt qismdan tashkil topgan. Birinchi qismi Bobur va “Boburnoma”ga bag‘ishlangan; ikkinchi qismi boburiylar va “Tarixiy Rashidiy” asari haqida; uchinchi qismi “Temur va temuriylar tarixi to‘g‘risida” va to‘rtinchi qismi qo‘shimchalardan iborat. Bundan ko‘rinib turibdiki, ayni kunga qadar o‘zbek yozuvchilaridan tashqari Bobur haqida asar yaratgan bir necha o‘nlab chet ellik olimlar ham tinimsiz izlanishlar olib borishgan. Jumladan, 1995-yili “Cho‘lpon” nashriyotida ingliz tarixchisi U.Inskinning “Bobur Hindistonda” asari, hind tarixchisi L.P. Sharmanning 1988-yil – Dehlida bosilgan. “Boburiylar saltanati” asari, amerikalik olim S.M.Berkning “Akbarshoh – boburiylarning eng buyugi” asarida Boburga zamondosh tarixchilarning qo‘lyozmalari, Hindiston tarixiga oid tadqiqotlar, XX asrning jahonga mashhur olim va tarjimonlarining asarlarida Boburning butun hayot yo‘li, bolalik, o‘spirinlik, yigitlik yillari, tashvishli kunlari, hukmorlik faoliyati, diniy-falsafiy qarashlari, davlatni boshqarish usuli, madaniyat va san‘atga munosabati singari masalalar tasvirlangan. Amerikalik tadqiqotchi Boburga bergan qisqa va lo‘nda ulug‘siymoning hayot yo‘li, davlatchilik tarixidagi xizmatlari va shaxsiyatidagi eng muhim jihatlarni muxtasar tarzda yoritishga erishgan. Muallif Boburning hukmronlik siyosati xususida shunday yozadi: “Boburshohning fikricha, fotihlik va hukmronlik ishida yuz ming usul qo‘llasa ham haq va zarur hisoblanadi. Biroq bosib olingan yerlarni, ayniqsa, bu o‘lkalarni o‘z saltanati tarkibiga kiritish rivojlantirish bo‘lsa-da, u g‘olib askarlar mag‘lublar mulkini taron-taroq qilishiga mutlaqo yo‘l qo‘ymasdi”.

Bobur hayoti va ijodi Fransiyada ham keng o‘rganilgan bo‘lib, Fransiya ilm ahliga Zahiriddin Muhammad Bobur va “Boburnoma” haqida, dastavval, ma‘lumot bergan fransuz sharqshunosi Bartoleme D’Erbelo hisoblanadi. D’Erbelo o‘zining “Sharq kutubxonasi” qomusidagi “Bobur yoki Bobur” nomli maqolasida Boburning hayoti,

uning davlati va sarkardalik mahorati, adabiyot va san'atga qiziquvchi ilg'or fikrli kishi bo'lgani haqida ma'lumot beradi. XIX asrga kelib Yevropada, xususan, fransuz sharqshunosligida Bobur merosini o'rganish, siyosiy-tarixiy ahamiyatini baholashda fransuz olimlari e'tiborga molik tadqiqotlarni yaratdilar. "Boburnoma" ni fransuz tiliga tarjima va tadqiq qilishga sharqshunos Anri Jyul Klaprot birinchilardan bo'lib harakatni boshlaydi. Zahiriddin Muhammad Bobur butun jahon tarixiga hissa qo'shgan shaxs edi. Uning o'rganilishi, o'qilishi deyarli dunyoning barcha mamlakatlarida yuz bergan. Bobur nafaqat shoir va shoh ham edi. Shoh va shoirlik yo'lida ham birdek faoliyat yuritgan. O'z mahorati va salohiyati bilan hammani lol qoldira olgan shaxsdir. Shu tufayli, mana necha asrlardan beri o'rganilib kelinmoqda, bundan keyin ham o'rganilishda davom etishiga ishonamiz.

"Boburnoma"dagi maqollarni o'rganish jarayonida biz xalqimiz ma'naviyati sarchashmasidan yana bir bora bahramand bo'lamiz. Shuni alohida ta'kidlashimiz kerakki, Bobur ijodini o'rganish o'quvchilar tarbiyasida muhim ahamiyatga molikdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Zahiruddin Muhammad Babur Mirza. *Bâburnâma I*, (= Sources of Oriental Languages and Literatures 18), Cambridge: Harvard University Press, USA. Thackston, W.M., 1993.
2. Zahiruddin Muhammad Babur Mirza. *Bâburnâma II*, (= Sources of Oriental Languages and Literatures 18), Cambridge: Harvard University Press, USA. Thackston, W.M., 1993.
3. Zahiruddin Muhammad Babur Mirza. *Bâburnâma III*, (= Sources of Oriental Languages and Literatures 18), Cambridge: Harvard University Press, USA.
4. Eiji Mano. *Bâbur-nâma (Vaqâyi)*. Critical Edition Based on Four Chaghatay Texts with Introduction and Notes. – Kyoto, Shōkadō, 1995
5. Ikromjonovna, J. S. (2023). THE ROLE OF FOLK TALES AND EPIC MOTIVES IN THE POETRY OF USMAN AZIM. Open Access Repository, 9(4), 545-548.
6. Jumanova, S. (2023). AUTUMN MOTIF IN THE POETRY OF USMAN AZIM. Scientific Journal of the Fergana State University, 28(2), 29.
7. Jumanova, S. (2022). Landscape in Usmon Azim" Bakhshiyona". EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(4), 169-172.
8. Қаюмов А. Асарлар. 5-жилд. Заҳириддин Муҳаммад Бобур ижодиёти. Т.:Мумтоз сўз, 2009. – 303 б
9. Низомиддинов Н.Ф. Буюк бобурийлар тарихи (XVI-XIX аср). Монография. Тошкент.: Fan va texnologiya, 2012 йил. – 516.